2024-yilning yanvar-fevral oylarida 850 ming nafar o‘zbekistonlik turistik maqsadlarda chet elga borgan. | Shundan: | 0–18 yosh: 110,4 ming nafar; | 19–30 yosh: 148,8 ming nafar; | 31–55 yosh: 425 ming nafar; | 56 yosh va undan kattalar: 165,8 ming nafar.

# YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

#15 (16617)
2024-yil, 1-may
chorshanba

/yoshlarovozi /yoshlarovozi /yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan



## mutolaa – KITOBXONLARGA TUHFA

2-bet

Kitob – tafakkurning durdonasi va ruhiy barkamollik vositasidir. U o‘quvchini o‘tmish, bugungi kun va kelajak bilan yuzlashtiradi, mushohada qilishga undaydi.

Bugungi kun yoshlari kitobxonlik ma’nan barkamollikning sharti ekanini anglamoqda. Shu bilan birga, ularning kitobga talabi, mutolaaga yondashuvi o‘zgaryapti. Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan yaratilgan “Mutolaa” mobil ilovasini kitobxonlar chinakam tuhfa sifatida qarshi olgani so‘zimizni isbotlab turibdi. Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida o‘tkazilgan loyiha taqdimotida zamonaviy o‘zbek adabiyotida katta rezonans uyg‘otgan “Qo‘rqma” asariga ishlangan hujjatli film premyerasi keng jamoatchilik va ziyolilarni befarq qoldirmagani yana bir muhim ko‘rsatkichdir.

## FUTBOL BO‘YICHA O‘ZBEKISTON YOSHLAR TERMA JAMOASIGA

*Aziz farzandlarim!*

Shu kunlarda Qatar Davlatida futbol bo‘yicha yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tayotgan Osiyo kubogida muvaffaqiyatli ishtirok etib, biryo‘la final yo‘llanmasini hamda shu yil yozda Parijda o‘tkaziladigan Olimpiya o‘yinlari yo‘llanmasini qo‘lga kiritganingiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Jonajon O‘zbekistonimizning futbol tarixida birinchi marta erishilgan bunday yorqin g‘alabani, hech shubhasiz, mamlakatimizdagi barcha sport muxlislari, ko‘p millatli butun xalqimiz cheksiz quvonch va g‘urur bilan kutib oldi. Zero, bu el-yurtimizning necha yillik buyuk orzusi edi. Bu orzuni amalga oshirish aynan sizlarga – Yangi O‘zbekistonning navqiron farzandlariga nasib etgani bilan har qancha faxrlansangiz, arziydi.

Albatta, sizlar erishgan bu tarixiy g‘alaba zamirida keyingi yillarda mamlakatimizda sport sohasini, jumladan, futbolni rivojlantirishga berilayotgan ulkan e’tibor va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli amaliy ishlar mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Shu bilan birga, sizdek azmu shijoatli yoshlarimizning tajribali murabbiy va mutaxassislar rahbarligida mazkur musobaqaga puxta tayyorgarlik ko‘rib, har bir o‘yinda chinakam mahorat, jasorat va matonat namunasini ko‘rsatganingiz, albatta, yuksak tahsinga munosibdir.

Osiyo qit’asidagi eng kuchli jamoalar bilan qizg‘in kurashlar ostida bo‘lib o‘tgan 5 ta o‘yinda ham jamoamiz darvozasini daxlsiz saqlab, raqiblar darvozasiga 14 ta javobsiz to‘p kiritganingiz ham futbolimiz tarixida misli ko‘rilmagan natijadir.

Ishonchim komilki, sizlar bu yutuqdan yanada ruhlanib, final bellashuvida “Osiyo chempioni” degan sharafli nom uchun munosib kurash olib borasiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizga, sizlarning mehribon ota-onalaringiz, ustoz-murabbiylaringizga ham chin qalbimdan minnatdorchilik bildiraman.

Butun O‘zbekiston xalqi sizlarga hamisha baxt va omadlar, porloq g‘alabalar tilaydi, aziz bolalarim!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



**Qatar poytaxti Doha shahrida futbol bo‘yicha 23 yoshgacha bo‘lgan terma jamoalar o‘rtasida o‘tkazilayotgan Osiyo kubogida O‘zbekiston olimpiya terma jamoasi yarim final bahsida Indoneziya termasini 2-0 hisobida mag‘lub etib, musobaqa finaliga chiqdi. Shuningdek, jamoamiz “Parij-2024” Olimpiadasiga yo‘llanmani ham qo‘lga kiritdi.**

**Osiyo kubogi finalida futbolchilarimiz Yaponiyaga qarshi maydonga tushadi. Yoshlarimizga omad tilaymiz!**

## RESPUBLIKA KOMISSIYASI: SAMARALI MULOQOTLAR DAVOM ETADI

2-bet



Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi hududlarda o‘rganish ishlari va yoshlar bilan muloqotini jadal davom ettirmoqda.

Jumladan, ishchi guruh rahbari Qahramon Quronboyev Buxoro viloyati Buxoro tumanida yoshlarga berilgan ekin yerlarini borib ko‘rdi. Tumanda 1414 nafar yoshga 519 gektar yer ajratilgan. Asosan poliz mahsulotlari ekish rejalashtirilgan. Bu yerda yiliga uch marta ekin ekib, o‘rtacha 50, 55 million so‘m daromad olish mumkin.

Qaror va ijro

## BIZ INTILISHDAN TO‘XTAMAYMIZ

*Laylo BOYMIRZAYEVA,*
Yangiyo‘l tumanidagi “Bunyodkor” mahallasi yoshlar yetakchisi.



Kasbim – mening hayotim mazmuni. Shiorim esa intilishdan hech qachon to‘xtamaslik! Faoliyatimni 2011-yil 34-umumta’lim maktabida yoshlar yetakchiligidan boshlaganman. Hozir Yangiyo‘l tumanidagi “Bunyodkor” mahallasida yoshlar yetakchisiman, shu bilan birga, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institutining sirtqi bo‘limi talabasiman.

Hozir mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi, qobiliyat va iste’dodini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha zarur sharoit yaratib berilgan. Joriy yil mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlangani bizga katta mas’uliyat yukladi.

O‘tgan yili mahallamizda yoshlar bilan individual ishlash tizimini joriy etish uchun 14-30 yoshdagi 599 nafar yosh faoliyati tahlil qilindi. Ular uch toifaga ajratilib, tarbiyasi og‘ir va alohida ishlash zarur bo‘lgan yoshlar turli darajadagi tashkilot-muassasalar rahbarlariga biriktirildi. Natijada yordam ko‘rsatilishi zarur bo‘lgan 9 nafar o‘g‘il-qizning barchasiga amaliy ko‘mak berildi.

Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yoshlar bilan ishlash yo‘nalishidagi sa’y-harakatlarni yangi bosqichga ko‘tardi. Qaror asosida har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Ayni paytda Toshkent viloyati mahallalaridagi yoshlar yetakchilari bilan bir safda faoliyat yuritmoqdaman.

Bizning mahallada ham yoshlarning rahbarlarga biriktirilishi, bandligini ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtojlarini qo‘llab-quvvatlash, murojaatlarini nazoratga olish borasidagi chora-tadbirlar natija bermoqda.

Misol uchun, mahallamizdagi yordamga muhtoj yoshlarning 16 nafariga kontrakt pullarining 50 foizi to‘lab berildi, 13 nafari harbiy xizmatga yuborildi, 11 nafariga subsidiya asosida asbob uskuna olib berildi, 4 nafariga tikuv mashina, 3 nafariga “Motokultivator”, 1 nafariga kompyuter olib berildi. Shuningdek, 3 nafar yoshning davolanishi uchun moddiy ko‘mak ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, hududimizda ish boshlagan “AL-AZIZ ACADEMY” nodavlat ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda 5 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari ingliz va rus tiliga bepul o‘qitilmoqda. 4 nafar yoshning 3 nafari tikuvchilikka, 1 nafari hamshiralik bo‘yicha kasb-hunarga o‘qitilib, ish bilan ta’minlandi. 20 nafar yoshga dehqonchilik qilishi uchun sug‘oriladigan joylardan yer maydonlari ajratildi.

Sarhisob qilishga arzigulik natijalarimiz juda ko‘p. Biroq bu bilan to‘xtamaymiz. Aksincha, yangi marralar, yangi maqsadlar sari harakat qilmoqdamiz. Jamiyatimizdagi islohotlarda faol qatnashayotganimdan juda xursandman.

*“4 NAFAR YOSHNING 3 NAFARI TIKUVCHILIKKA, 1 NAFARI HAMSHIRALIK BO‘YICHA KASB-HUNARGA O‘QITILIB, ISH BILAN TA’MINLANDI.”*

**O‘zA**



## KO‘KDALADA TARVUZ PISHDI!

4-bet

Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumanida tarvuz pishdi. Usta dehqonlarning bu muvaffaqiyati siri nimada?

### 40-50 MILLION FOYDA!

186 mingdan ortiq aholiga ega Ko‘kdala tumanida 25 ming gektar maydonga ertapishar tarvuz ekilgan. 10 mingga yaqin oilaning daromad manbayiga aylangan bu paykallardan ular har yili o‘rtacha 40-50 million so‘mga yaqin foyda oladi.

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

# mutolaa – KITOBXONLARGA TUHFA



Ilhomjon ABDUSALOMOV, “Yoshlar ovozi” muxbiri



Jamoatchilik faollari, adabiyotshunoslar, yozuvchilar, shoirlar, nashriyot vakillari, faxriy mehmonlar zalga alvon yo‘lakdan kirib keldi. Mehmonlar majmuaga qadam bosiboq kitoblar dunyosiga tushib qolgandek bo‘lishdi. Aniqrog‘i, Otabek va Kumush (“O‘tkan kunlar”), Unsin (“Daxshat”), Sariboy va Qoravoy (“Shum bola”), Zebi (“Kecha va Kunduz”), Kichkina shahzoda va uchuvchi (“Kichkina shahzoda”) kabi obrazlar monologi, badiiy chiqishlari tantanaga o‘zgacha shukuh bag‘ishlab turdi.

“Shum bola” asaridagi Sariboy obrazini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, “Mehnat shuhrati” va “Do‘stlik” ordenlari sohibi Turg‘un Beknazarov gavdalantirdi.









*– Bunday tadbirlar, loyihalarni davomiy o‘tkazish kerak,* – **deydi Turg‘un Beknazarov**. – *Birinchidan, yoshlarning dunyoqarashini o‘stirib, o‘z ustida ishlashi uchun motivatsiya beradi. Ikkinchidan, yoshlar kitob orqali qadimiy va betakror yurtimiz tarixi, ajdodlari, xalqimizning asriy orzu va an’analari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.*

7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan ma’rifat ahli mushtoqlik bilan kutayotgan namoyishlar avvalida “Qo‘rqma” hujjatli filmi rejissyori, aktyor Erkin Bozorovga filmning yaratilishi, kitobxonlarni o‘ziga torta olishi haqidagi savollar bilan yuzlandik.



*– Yoshlar ishlari agentligi loyiha doirasida o‘zbek va jahon klassik adabiyoti durdonalarini ommaga yetkazishni ko‘zlagan,* – **deydi Erkin Bozorov.** – *“Qo‘rqma” asari ham bu ro‘yxatda mavjud. Asar asosida ishlangan hujjatli film kitobxonlarning qiziqishi va uni mutolaa qilishiga o‘ziga xos turtki bo‘la oladi. Filmda asar haqida atroflicha ma’lumot beriladi, uning mazmun-mohiyati, dolzarbligi haqida fikr yuritiladi.*

> “MUTOLAA” LOYIHASI UCHUN 1100 DAN ORTIQ KITOB (BADIIY ASAR, HIKOYA, ERTAK VA ILMIY OMMABOP ASARLAR)NING AUDIO VA ELEKTRON VARIANTI TAYYORLANIB, MOBIL ILOVAGA JOYLASHTIRILDI. LOYIHA AHOLI, AYNIQSA, YOSHLAR ORASIDA OMMALASHIB, ILOVA BUGUNGI KUNGA QADAR 277 MINGDAN ORTIQ YUKLAB OLINGAN.

Taqdimot va hujjatli film premyerasidan so‘ng maxsus teatrlashtirgan sahna ko‘rinishi namoyish etildi. Unda buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy timsolida jadidchilik harakati vakillarining xalqni ozod qilish, ilmga, kitobga ishtiyoqini qo‘llab-quvvatlash borasidagi jonfidoligi, bu yo‘lda ularga to‘siq bo‘lgan mustamlakachilar va mahalliy amaldorlarning kirdikorlari aks etdi. Jahon va o‘zbek adabiyotidagi qahramonlar kitobxonlik, asar mazmun-mohiyati to‘g‘risida bahs olib bordi.

Darvoqe, 204 ta tuman va shahar markazlarida yoshlar yetakchilari, faol yoshlar bilan birgalikda loyihaning onlayn taqdimoti va “Qo‘rqma” filmi jonli translyatsiyasi tashkil etildi.

Taqdimot marosimida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayev, O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi boshqaruvi raisi Sherzodxon Qudratxo‘ja so‘zga chiqib, hozirgi turmushning maishiy muammolariga berilmaslik, o‘zlikni anglash va jarayonda kitobxonlikning muhim pozitsiyasi, “Mutolaa” loyihasi bugungi kun kitobxoni uchun qanchalik foyda bera olishi to‘g‘risida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Navbat “Mutolaa” loyihasi taqdimotiga yetib keldi.




Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-noyabrdagi “Yoshlar uchun ming kitob” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-380-son qarori hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son farmoni “Mutolaa”ning yaratilishida muhim huquqiy asos vazifasini bajardi.

AT “Xalq banki” bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan “Mutolaa” bir qancha maqsadlarni ko‘zlagan. Xususan, mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, kitob o‘qish va uning targ‘ibotini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yangi bosqichga olib chiqish, o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalarini jamlab, aholi, jumladan, yoshlar uchun elektron, audio va video shaklda bepul foydalanish imkoniyatini yaratish uning asosiy maqsadi hisoblanadi.





*– “Yosh kitobxon” tanlovida 7 yildan buyon hakam sifatida ishtirok etaman,* – **deydi filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov.** – *“Mutolaa” esa mamlakatda kitobxonlikni ommalashtirish, kitobxon millatni yuzaga chiqarishda muhim omil bo‘lishi aniq. Albatta, ish bor joyda kamchilik bo‘ladi. Loyiha yoki hujjatli filmda bu jihatlar ko‘zga tashlangandir, biroq uni takomillashtirib borish va jarayondagi mehnatni alohida e’tirof etish maqsadga muvofiq. Bu ham yoshlarni kitobga yaqinlashtirishning o‘ziga xos yo‘li.*

“Qo‘rqma” kitobi uchun ishlangan badiiy hujjatli film kitobxonlik sohasida yangi yo‘nalish hisoblangan kino-kitob yaratish yo‘lidagi dastlabki ishdir. Filmni xorijda ham ommalashtirish maqsadida 4 ta tilga (ingliz, rus, turk va ispan) tarjima qilindi. Shu yo‘nalish bo‘yicha “Kichkina Shahzoda” va “Dahshat” asarlariga badiiy hujjatli filmlar suratga olindi. “Mutolaa” yordamida 2024-yil yakuniga qadar 1 milliondan ortiq kitobxonni kashf qilish rejalashtirilgan.

*– Biz uchun “Mutolaa” bir qancha afzalliklarga ega,* – **deydi Oqqo‘rg‘on tumanidagi 8-maktabning 9-sinf o‘quvchisi Shahriyor Turg‘unboyev.**








*– Misol uchun, 800 yoki 1000 betli kitobni olib yurish biroz o‘ng‘aysizroq. Lekin “Mutolaa” bizga istalgan vaqtda, katta yoki kichik hajmda bo‘lishidan qat’i nazar kitoblardan foydalanish imkoniyatini bera oldi. Agar elektron kitobdan zeriksak, audio, undan ham zeriksak, video kitoblar jamlangani, men uchun keng tanlov imkoniyatini berdi.*

Shu o‘rinda film haqida qisqacha to‘xtalmoqchimiz. Abdurauf Fitrat Turkiyadagi “Yosh turklar” harakatidan ilhomlanib, Buxoroda “Yosh buxoroliklar” partiyasini tuzadi va uning ma’naviy rahnamosiga aylanadi. 1922-yil do‘sti hamda maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda Buxorolik 70 nafar turkistonlikni Germaniyaning bir qator oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuboradi. Asar shu 70 nafar talabaning ayanchli taqdiriga asoslanib yoziladi.

“Qo‘rqma” his-hayajon romani bo‘lib, undagi badiiy g‘oya keng miqyosli, millat va Vatan dardini o‘zida aks ettirgan. Bu muammo bugun va bir asr oldingi yoshlar hayoti misolida tush va xush oralig‘ida, tajohili orifona yo‘sinda ba’zan piching va kesatiq qamrovida badiiy ifoda etiladi. Muallif mudroq ko‘ngillarni uyg‘otishni istab, odamlar o‘z yaratilish siynatiga chuqur nazar solishini xohlaydi.

Premyeradan keyin tomoshabinlar taassuroti bilan qiziqdik.

*– Fikrimcha, bu filmni har bir o‘zbekistonlik ko‘rishi kerak,* – **deydi Toshkent shahridagi Webster universiteti talabasi Asadbek Ruslanbekov**. – *Millat ilmsiz, kitobsiz yuksak taraqqiyotga yeta olmasligi, kitobdan uzoqlashayotgan avlodning ertasi qanday bo‘lishini asardagi Qoravoy, Qiztaka va Telefonchi obrazlari orqali his qildim. Shuningdek, millatni jaholatga yetaklovchi, cho‘ntagini qappaytirish orqali o‘z manfaatini yurt ravnaqidan ustun ko‘rganlarga biz yoshlar qarshi kurasha olsak, Vatan oldida ulug‘ vazifani ado etishimiz mumkinligini angladim. O‘zingiz guvohi bo‘lganingizdek, ilovani ham shu onda yuklab oldim va undan maqsadli foydalanishga qaror qildim.*

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

# RESPUBLIKA KOMISSIYASI:

## SAMARALI MULOQOTLAR DAVOM ETADI

Shuningdek, G‘ijduvon tumanidagi Abdulla Qahhor mahallasi “yettiligi” bilan uchrashuv o‘tkazilib, eng muhim vazifa va mavjud muammolar yuzasidan muloqot o‘tkazildi.

Navoiy viloyati G‘azg‘on shahri, Nurota va Xatirchi tumanlaridagi markazdan uzoq bo‘lgan mahallalarda “yettilik” faoliyati va aholi muammolari o‘rganilib, har bir mas’ulga ularning yechimi, hal etilishi bo‘yicha javobgar ekanligi tushuntirildi.



Respublika ishchi guruhi Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on shahri, Kattaqo‘rg‘on, Narpay va Paxtachi tumanlarida bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 4-apreldagi “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-sonli farmoni ijrosini ta’minlash va uning targ‘ibot ishlarini olib borish maqsadida sektor rahbarlari, soha mutasaddilari bilan chet elga ishlash uchun ketgan va ketadigan yoshlar uchun kerakli yo‘nalishlarda ko‘rsatmalar berish, ularning bandligini ta’minlash masalalari bo‘yicha suhbatlashdi. Muloqotlarda migratsiyadan qaytgan yoshlarni tuman va shaharning ichki imkoniyatlaridan foydalanib, ishga joylashtirish ko‘rsatib o‘tildi. Rossiya Federatsiyasida og‘ir sharoitlarda yashab, mehnat qilgan, boquvchisini yo‘qotgan 3 nafar ayol – 5 nafar farzandning onasi Nilufar Normurodova, 4 nafar farzandi bor Zulxumor Aminova hamda bir farzandning onasi Venera Jumayeva Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi tomonidan vatanga qaytarilib, uy-joy bilan ta’minlangani namuna qilib ko‘rsatildi.

Ishchi guruh “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida tomorqada yetishtirilayotgan bahorgi ekinlarni ko‘zdan kechirdi.

Respublika Ishchi guruhi Navoiy viloyati Nurota tumanida o‘rganish ishlarini davom ettirdi. Tuman sektor rahbarlari bilan uchrashuvda migratsiyadan qaytgan yoshlar bilan tizimli ishlash va yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha birinchi navbatda amalga oshiriladigan ishlar muhokama qilindi. Tumanda mehnat yarmarkasi o‘tkazib, har bir “mahalla yettiligi”ga migratsiyadan qaytgan yoshlarni biriktirish belgilandi.

# “MAHALLA YETTILIGI”: YOSHLAR KO‘PROQ KIMGA SUYANMOQDA?

“Mahalla yettiligi” faoliyati yo‘lga qo‘yilganiga bir necha oy bo‘ldi. Ortda qolgan davr mobaynida “yettilik” vakillari samarali ishlarni amalga oshirib, yoshlar bilan, mahalla bilan ishlash tizimini yo‘lga qo‘ygan. “Yettilik” faollarining ishlarini, yoshlarga e’tiborini o‘rganish maqsadida respublikamizning turli hududlaridagi yoshlarning “Mahalla yettiligi” xodimlari haqidagi fikrlari bilan qiziqdik.

*– “Dalvarzin” mahallasi mutasaddilaridan yoshlar yetakchisi va mahalla raisini ko‘proq bilaman,* – deydi Toshkent viloyati Bekobod tumani “Dalvarzin” mahallasidan Sanjarbek Muhammadov. – *Men ko‘proq mahalla yoshlar yetakchisi Ulug‘bek Rahimjonov yoniga boraman. Doim murojaatlarimga yechim topib beradi. U har vaqt yoshlarning muammo va murojaatlariga “labbay” deb javob berib, qo‘lidan kelgancha yordam qilyapti. Abituryentlik vaqtimda o‘qishga onlayn hujjat topshirishda yordam berdi, o‘qish davomida yuzaga kelgan muammolarimga, akamni harbiy xizmatga yuborish masalalarida ko‘maklashgan. Mahallamiz yoshlarini futbol va boshqa sport o‘yinlariga muntazam jalb qiladi.*

Eng yaxshi sarmoya ta’limga kiritilgan sarmoyadir. Bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha sharoitlar yaratilib, kontrakt to‘lovlari qoplab berilmoqda. Shartnoma pulini to‘lashga imkoniyati yo‘q yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritilib, shartnoma pulini to‘lab berish yo‘lga qo‘yilgan.

*– Bizga katta imkoniyat eshiklari ochilmoqda,* – deydi Namangan viloyati Chust tumanidagi “Tinchlik” mahallasida yashovchi “University of Business and Science” oliy o‘quv yurti talabasi Gulhayo Rahmonova. – *Kollejni 2015-yili tamomlaganimdan so‘ng oliy ta’limga hujjat topshirdim. Bilimim kamlik qildimi yoki omad yetishmadimi, o‘qishga kira olmadim. Shundan keyin ham bir necha bor hujjat topshirdim. Nihoyat, 2023-yili talaba bo‘lish baxti nasib etdi. Mahallamiz yoshlar yetakchisi Otabek Qobilov xatlov o‘tkazayotganda kontrakt to‘loviga imkoniyatim yo‘qligini, yordam berishini so‘ragandim. Men “Yoshlar daftari”ga kiritildim va qisqa fursatda amaliy yordam ko‘rsatildi. Murojaatlar mahallaning o‘zida hal etilishida mahallamiz raisi, yoshlar yetakchisi va hokim yordamchisining xizmati katta bo‘lyapti.*

“Yerni boqsang, yer seni boqadi” degan gap bor. Yerga qanchalik e’tibor bilan qarab, mehr bersangiz, hosil ham shunga yarasha bo‘ladi. Yerga mehr qo‘ygan va yerni xazina manbayi deb bilgan yoshlardan biri Azizbek Ibodullayev. Mehnatiga yarasha daromad ham olmoqda.

*– Dehqonchilikni bobomdan o‘rganganman,* – deydi Samarqand viloyati Payariq tumani “Maniobod” mahallasida yashovchi Azizbek Ibodullayev. – *Avval hovlimizdagi kichik tomorqada dehqonchilik qilardim. Keyin faoliyatimni kengaytirish maqsadida mahallamiz yoshlar yetakchisiga ekin yer maydoni kerakligini aytdim. Yoshlar yetakchisi va hokim yordamchisi tavsiyasiga ko‘ra, menga 40 sotix yer berildi. Bu yerga yiliga 2-3 marta ekin ekib, 40-50 million so‘mgacha daromad qilish mumkin. Yeryong‘oq, makkajo‘xori ekyapman. Xarajatim 15 million so‘m bo‘ladi. Mehnatini o‘zim qilganim uchun faqat urug‘lik sotib olaman. Bu yil yig‘gan hosilimdan keyingi mavsum uchun urug‘lik ham tayyorlashni reja qilyapman. Bu yo‘l bilan xarajatlarni yanada kamaytirishga va ko‘proq foyda olishga erishaman.*

**Muhammadshukur MUHAMMADJONOV** yozib oldi.

YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI

# TOP-100 | 2024-yilning 1-choragi davomida samarali faoliyat olib borgan MAHALLADAGI YOSHLAR YETAKCHILARI



JANAR KOJANOVA Vatanparvar MFY
SHOHRUX ISMOILOV Sarkop OFY
ALISHER HASANOV Qangli MFY
NARGIZA NAMOZOVA G'alaba MFY
DAMIR BIIMBETOV Kenes MFY
RAUSHANBEK JANIBEKOV Shodlik MFY
BOTIR UMAROV Jayhun ShFY
GO'ZAL JAKSIMURATOVA Jas aulad MFY
YUNUSBEK ABDUG'AFFOROV Ma'rifat MFY
HUSNIYABONU JONIBEKOVA Gara guri MFY



JAHONGIR ABDULLAYEV Gumbaz MFY
BARNO KOMILOVA Toshkechik MFY
YAHYO MATQOSIMOV Yangi hayot MFY
RAVSHANOY USMONOVA Yonbosh do'rmon MFY
JAMSHIDBEK OTAMIRZAYEV O'zbekiston MFY
SHAHNOZA SA'DULLAYEVA Biyosin MFY
SHAHZOD HUSENOV Otbozor MFY
MALIKA ABDIYEVA Aleli MFY
MIRJALOL BOBOQULOV O'zbek MFY
MAQSAD ALIMOVA Beklar MFY



MIRSHODBEK BOZOROV Tarnaut MFY
AZIZBEK MARDONOV Changaron MFY
HAFIZAXON MATMUSAYEVA Oltin vodiy MFY
ISLOM MUHAMMADJONOV Obod MFY
MUBINAXON MAMITALIYEVA Farg'ona MFY
ABDULHAMID JALOLIDDINOV Do'rmon MFY
ABUBAKIR AHRORJONOV Bachqir MFY
GULRUXSOR XUDOYNAZAROVA Cho'mbog'ish MFY
SHODONBEK HUSANOV Guliston MFY
NURIDDIN ALIMOV Amir Temur MFY



DILNOZA NIYOZMATOVA Taraqqiyot MFY
DILSHOD G'ULOMOV Turon MFY
SURAYYO JO'RAYEVA Pistalikent MFY
TEMUR MURATBAYEV Madaniyat MFY
O'TKIR HUSANOV Alamli MFY
SHAHBOZ QO'CHQAROV Yoshlik MFY
ASADBEK UMARALIYEV Gaznon MFY
UMIDJON ADASHEV Qumtepa MFY
AVAZXON NAQIBXONOV Na'muna MFY
NODIRBEK SUYUMOV Uyg'or MFY



IBROHIM ABDURAHMONOV Istiqlol MFY
GULBAHOR ISMATOVA Istiqlol MFY
UMIDJON VALIJONOV Davlatobod MFY
NODIRBEK ZARIFOV Farovon MFY
JAHONGIR GADOYNIYOZOV Jaloyer MFY
MALIKA XUDOYBERDIYEVA Do'stlik MFY
MARJONA SAIDOVA Shayxon MFY
JAHONGIR SHAROPOV G'alaba MFY
JAHONGIR RAZZOQOV Nurafshon MFY
BEHZOD DILSHODOV Navkar MFY



BAHRIDDIN RIVOJOV Oqqamish MFY
SAHOBIDDIN HUSANOV Yangiobod MFY
SHALOLA BOYMURODOVA Ayzabod MFY
FARRUX SUYUNOV Katta Novqat MFY
O'G'ILOY ARABOVA Xudoyzod MFY
HUMOYUN DIYOROV Jiyda MFY
DILDORA XUDOYBERDIYEVA Gungon MFY
DOSTONJON SHUKRULLAYEV Amir Temur MFY
NARGIZA G'AFFOROVA Qang'li MFY
JALOL HAYDAROV Boyto'p MFY



OYBEK ABDUG'ANIYEV Mash'al MFY
HILOLA ABDULLAYEVA Yangi qishloq MFY
JAMOL XUDOYBERDIYEV Beshnayman MFY
DILSHODA RASULOVA Bo'ston MFY
HUSEN NASRIDDINOV Go'ri Amir MFY
AZIMJON CHIMANOV Zarbdor MFY
BOBURJON MADUMAROV Paxtakor MFY
DILMUROD RAHIMJONOV Do'stlik MFY
DONIYOR SARIMOV Sayqal MFY
OZODJON OMONBOYEV Shirin MFY



SANJAR RUSTAMOV Fazilat MFY
SARVAR DONIYOROV Nurobod MFY
NURALI JUMAYEV Obi MFY
OBIDJON QODIROV Ekraz MFY
IQBOL MAMATMO'MINOVA Do'stlik MFY
MALIKA KOMILOVA Yangi Kamolot MFY
JAHONGIR MUQIMOV Porloq yulduzi MFY
SHAMSIDDIN FATHULLAYEV Madankon MFY
ABDUVALI XOLMO'MINOV Kunchiqish MFY
ROBIYA UMAROVA Oqibat MFY



G'OFURJON NOSIROV Katta Qa'ni MFY
KAMOLA O'TANOVA Yangi Sergeli MFY
SHOHSANAM YUSUPOVA Tashabbus MFY
MOMASULUV YUSUPOVA Istiqbol MFY
SHUKURULLO QODIROV Ko'rkam MFY
SHOHISTA INOYATOVA Dilbuloq MFY
SANOBAR MADAMINOVA Chinor MFY
MUHAMMAD YUSUFBOYEV Madaniyat MFY
ZOHIDJON G'AFFOROV Ilg'or MFY
SARVARBEK MIRZAYEV Birlik MFY



HUSNORA HASANOVA Yangiobod MFY
JASUR ORTIQBOYEV Chinor MFY
DINORA SHOMURODOVA Taraqqiyot MFY
BEKTURSUN YO'LDOSHEV Nukus MFY
TABASSUM KOMILJONOVA Porloq MFY
OYBEK OTABOYEV Olma bog' MFY
GULSHOD JABBOROVA Qiyot MFY
HURMAT YO'LDOSHEV Archazor MFY
OYBEK MADRAHIMOV G'alaba MFY
NAFOSAT ALLABERGANOVA Navbahor MFY

# BIR XIL DARSLIK – IKKI XIL MA'LUMOT

## QAYSI BIRIGA ISHONAYLIK

Dars xonasi abituriyentlar bilan to'la. Imtihonda kerak bo'ladigan kitoblarni har kuni bittalab tahlil qilishimiz kerak.

– 10-sinf, "Ona tili"ning yangisini olinglar. Qaysi betga kelib qolgandik? – dedim 2022-yilda nashr qilingan yangi darslikka ishora qilib. – Men javoblarni e'lon qilib boraman. Hamma yo'l-yo'lakay olgan javobi va fikrini bildirib ketsin!

Barcha o'quvchilar ilmga chanqoqligi va imtihonga yaqin qolgani uchun hamma vazifani bajarib kelganiga ishondim va bittalab tekshirib o'tirmadim.

– 144-betdagi 3-testda bir nechta javob talab qilinarkan. B, D, F javoblarini olamiz. Kimda boshqacha? – dedim oson savol bo'lgani uchun ilmi toliblarim bunda xato qilmasligiga ishonib.

Ishongan tog'da kiyik yotmas. Adashibman, orqa tarafdan bir o'quvchi shart qo'l ko'tardi-da: "Men B, E, G olgandim, – dedi va yonida o'tirgan o'rtog'iga ishora qilib davom etdi: – Marjonada xuddi shu javob F da berilgan, menda esa G javobda, ustoz".

– Necha martalab aytganman: soxta kitob olmanglar. "Original"ini topinglar!

O'sha o'quvchi "Ustoz, bu "original"i, "kopiya"dan chiqarilgan emas" deganda bo'lishi mumkinmas, deb qat'iy turgandim, orqadan ham ikki-uch bola "Bizda ham shunaqa" degach borib ko'rishga jazm qildim. Ne ko'z bilan ko'rayki, ularning qo'lidagi "original" kitob mening qo'limdagi "original" kitobdan farq qilyapti. Balki adashayotgandirman deb qayta-qayta solishtirib ko'rdim. Yo'q, kitob bir xil-u, ichida ayrim joylari farq qiladi...

– Shunaqa bo'lishi ham mumkinmi? Mas'ul muharrirlar qaramaydimi, ustoz?..

Rost! Shunaqa bo'lishi mumkinmi? Mas'ul muharrirlar shu xatoliklar uchun javobgar emasmi?

"Buning imtihonga ta'siri yo'q. Talashib-tortishishga arzimaydi" dersiz, lekin davlat standarti-chi? Qay biri haqiqiy? Bu arzimasdir, ammo bizni qiynaydigan arzirli savollar bisyor.

2024-2025-o'quv yili imtihonlari uchun test shakllantiriladigan darsliklar ro'yxati e'lon qilinganda kapalagim bir uchgandi. 10-sinf uchun ham yangi (2022-yilgi nashr), ham eski (2017 va 2020-yilgi nashr) dan test shakllantirilar ekan! Nega? Axir, maktabda har ikkala nashrdan biri o'qitiladi-ku! Yoki Bilimni baholash agentligi repetitorda o'qilishini ham hisobga oldimikan?

Nega abituriyentlar imtihonga sentabr oyidanoq tayyorgarlik boshlashini bila turib Bilimni baholash agentligi mavsum boshidanoq test shakllantiriladigan darsliklar ro'yxatini e'lon qilib qo'ya qolmaydi? Har yili o'zgarib turadigan kitoblar orasidan qaysi birini o'qishni bilolmay joningiz halak. Bittasini taxminan boshlaysiz-u, ikki-uch oydan so'ng ayni shu kitob tasdiqlanmay, dog'da qolasiz!

Eng muhim masala – kitoblar yetishmovchiligi. Test shakllantiriladigan darsliklar imtihonga tayyorlanuvchi o'quvchilar naryoqda tursin, maktab o'quvchilari uchun ham yetarli emas. Qaysidir maktabda, aytaylik, ona tili kitobi topilmasa, boshqasida adabiyot yo'q. Nega shunaqa? Axir, maktab o'quvchilari soni aniq bo'lsa, avval shunga mutanosib ravishda kitoblar nashr qilinib, so'ngra tasdiqdan o'tkazilishi lozim emasmi? Balki kimlarningdir mas'uliyatsizligi tufayli kitoblar bizgacha yetib kelmayotgandir?

Ayni masalada mas'ul tashkilotlarga murojaat qilsangiz, eshitadigan javobingizdan na kulishni bilasiz, na yig'lashni: "XXI asr kompyuter asri. Elektron o'qishsin!".

Axir, telefon yoki kompyuterda o'qilgan biror ma'lumot kitobda o'qilganiga qaraganda bir necha bor kam ta'sirga ega ekanini ikki varaq o'qib ko'rgan odam darrov sezadi. Nahot javob beruvchi mas'ul shuni hisobga olmadi? Mayli, aytganicha qilib o'quvchi elektron o'qidi ham deylik. Internet zamonida yashayapmiz. Noxos kelgan biror yangilik haqidagi xabar bolani chalg'itib yubormaydimi?!

Mas'uliyat hisobga olmagan shu holatni ota-onalar hisobga olishdi-yu, farzandim yaxshi o'qisin, deya elektron kitoblarni qog'ozga chiqartirib, kitob shakliga keltirib berishdi. Lekin, afsuski, bu bilan tinchiy olmadik. Maktablarga tarqatilgan sanoqli "original" kitoblar va elektron kitoblar orasida farqlar yaqqol ko'rinib qoldi. Biridagi suratlar unisida boshqacha. Kitobdagi fikrlar elektronda boshqacha! Qay biriga ishonaylik?

> Har yili o'zgarib turadigan kitoblar orasidan qaysi birini o'qishni bilolmay joningiz halak.



Kitobga qilingan kichik e'tiborsizlik uni o'qiydigan kelajak bunyodkorining butun hayotiga ta'sir qilishi mumkinligini yodda tutmaydilarmi?!

**Shaxboz NEKBOYEV**

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Bir hudud – bir mahsulot

# KO'KDALADA TARVUZ PISHDI!



Tumanda ertapishar tarvuz yetishtirishni birinchi bo'lib "O'tamayli" mahallasining uddaburon dehqonlari boshlagan.

– *Mahallamizda plyonka ostida ertaki tarvuz yetishtirishning o'ziga xos tajribalari qo'llaniladi,* – deydi "O'tamayli" mahallasi raisi Rustam Abdullayev. –*"Dolbi" navli urug' fevral oylarida maxsus plyonka idishlarda ko'chat bo'lguncha parvarishlanadi. So'ngra issiqxonalarga o'tqazilib, do'ga usulida yetishtiriladi. Unumdor tuproq va suv tejovchi texnologiyalar issiqxonalarimizning asosiy afzalliklari bo'lgani bois erta bahordan to kech kuzgacha tarvuzdan barakali hosil olinadi.*

E'tiborlisi, mahalla ekin maydonlarining 90 foizga yaqin qismida tarvuz yetishtiriladi. Ko'kdalada yosh-u qari o'g'itlash, chopiq qilish, sug'orish va boshqa agrotexnik tadbirlarda faol ishtirok etadi.

– *Mahallamiz mirishkorlari orasida 20 gektargacha hududda shu faoliyat bilan shug'ullanadiganlar bor,* – deydi "O'tamayli" mahallasi hokim yordamchisi Ilhom Fayziyev. – *Ular o'rtacha bir gektardan 45-50 tonnagacha hosil oladi. Bir kilo tarvuz 10 mingdan 15 ming so'mgacha sotilsa, daromadini tasavvur qilavering. Mahallamiz drayveri bo'lgan tarvuzchilik bo'yicha aholining daromadini oshirish maqsadida 75 ta artezian qudug'i qazilib, 7 ming gektar lalmi yer o'zlashtirildi. Paykallarga to'liq suv tejovchi texnologiyalar o'rnatilgan.*

Ilhom Fayziyevning ma'lum qilishicha, aholi suvni tejash usullaridan oqilona foydalanmoqda. Ya'ni 5-7 sotix maydonda 3-4 metr chuqurlikda hovuz qazilib, plyonka bilan qoplanadi. Keyin 25-30 tonna suv bilan to'ldirilib, bosqichma-bosqich sug'orish ishlatilinadi.

### "MENI TARVUZCHI DEB CHAQIRISHADI"

– *Mahallamizning "Qodiriy" ko'chasi 20-uyda yashovchi Sardor Karimov va "Behbudiy" ko'chasi 35-uyda yashovchi Solih Rajabov ishsiz ekanligini ma'lum qildi,* – deydi mahalla yoshlar yetakchisi Mirkamol Ergashev. – *Xatlov jarayonida yoshlarimiz dehqonchilik qilishga xohishi borligini hamda iloji boricha o'z tomorqasidan samarali foydalanish uchun sharoit yaratib berishni so'radi. Yoshlarning talab va istaklari inobatga olinib, 2023-yil avgust oyida tavsiyamiz asosida hokim yordamchisi bilan birgalikda imtiyozli kredit ajratishga erishildi.*

Yoshlar yetakchisining bu gaplari amalda qanchalik o'z isbotini topganiga qiziqdik.

– *Dehqonchiligimizni dekabr oyida urug'ni issiqxonamizga qadashdan boshlaymiz,* – deydi 25 yoshli Sardor Karimov. – *Fevral oyida dalaga olib chiqishdan oldin ko'chatning to'g'ri shakllanganiga e'tibor beriladi. Tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan foydalanyapmiz. Buning afzalligi nimada desangiz, oldin 3 gektar maydonga sarflangan suvni hozir 6 gektarga yetkazyapmiz.*

Sardor Karimov o'tgan yili tarvuzchilikdan 120-150 tonna hosil yetishtirib, 35-40 million so'm daromad qilgan bo'lsa, bu yil ko'rsatkichni 170-200 tonna va daromadni 55-60 million so'mga yetkazishni rejalashtirgan. Yosh dehqon 3 nafar oila a'zosini doimiy, hosil yig'ish paytida 15-20 nafar hamqishlog'ini mavsumiy ish bilan ta'minlamoqda. Qozog'istonga jo'natilayotgan Ko'kdala tarvuzlarida Sardorning ham hissasi katta.

– *Tarvuzchilik bilan 5 yildan beri shug'ullanaman,* – deydi yana bir qahramonimiz Solih Rajabov. – *Joriy yilda yetakchimiz tavsiyasi bilan 7 gektar yer maydonini ijaraga oldim. Gektaridan o'rtacha 50-55 tonna hosil yetishtiramiz. Kam bo'lmayapmiz. Shu faoliyatimiz ortidan "tarvuzchi yigit" degan nomni olishimiz xalqimizga foydamiz tegayotganining rag'bati bo'lsa kerak.*

Ikki yildan beri tomchilab sug'orish texnologiyalaridan foydalanayotgan Solih Rajabov o'tgan yili 100-120 million so'm daromad oldi. Endigi maqsad eksport hajmini oshirish. Ayni damda Solih Rossiya Federatsiyasiga har bir hosildan 50 tonnagacha tarvuzni eksport qilmoqchi.

### YOSHLARIMIZDA INTILISH KUCHLI

Mahalla faollarining aytishicha, shu kunlarda "O'tamayli"da bironta ham bekorchi yoshni uchratmaysiz.

– *Maqtanyapti demang-u, yoshlarimizning deyarli hammasi mehnatkash,* – deydi yoshlar yetakchisi Mirkamol Ergashev. – *Dehqonchilikka qiziqishi bo'lgan yoshlar qatorida uyushmagan, ishsiz yoshlarimizni ham band qilyapmiz. Jumladan, joriy yilda 128 nafar yoshga tuman hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi ko'magida 50 sotixdan 5 gektargacha yer maydonlari ijara asosida ajratib berildi.*

1362 nafar yosh yashovchi mahallada 2023-yilgi xatlov jarayonida 12 nafar ishsiz yosh aniqlangan. Yil yakuniga qadar bu yoshlarning 2 nafari doimiy ish o'rniga joylashtirilgan. 5 nafariga mahalladagi hokim yordamchisi bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli kredit, 2 nafar yoshga bandligini ta'minlash maqsadida subsidiya asosida mehnat qurollari ajratilgan. 3 nafar yosh qiziqishidan kelib chiqib tumandagi monomarkazda kasb-hunarga o'qib qaytgan.

**Ilhomjon ABDUSALOMOV,**
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Taassuf

# DARSGA KELMASA HAM, OSHGA KELADI...

> *"Agar o'zbeklar boshqa ishlarga ham oshga kelgandek birlashib yig'ila olganlarida edi, dunyoda bundan qudratli millat bo'lmas edi".*
>
> **Alixonto'ra SOG'UNIY**



Mashinada ketar ekanman yonimdagi hamrohlarimdan biri haydovchiga gap qotdi: "Shu yerda to'xtab o'tmaymizmi, zap osh qiladi-da o'ziyam!"

Osh degan so'zni eshitib, beixtiyor qo'shnimizning gapi yodimga tushdi: "Ha, qo'shni, yangi toychoq muborak, qachon endi osh yeymiz?"

Eh, o'zbeklar!

Farzand tug'ilsa, elga osh beradi.

Beshik to'yida osh beradi.

Universitetga kirsa, osh beradi.

To'y qilsa, osh beradi... Yo'q, boshqacha bo'lishi mumkin emas. Aks holda, odamlar nima deydi?!

Nabira ko'rsa, osh beradi.

Va... Va bir kuni abadiy uyquga ketadi... Keyinchi? Keyin nima bo'ladi? Farzandlari elga osh beradi.

Ha, biz shunaqa elmiz. Sabab topilsa, bas, kimdir o'ldimi, tug'ildimi – muhim emas, osh yeyaveramiz. O'ldirsa ham osh o'ldirsin; tor joyda osh yeguncha, tor joyda musht ye...



Endi haydovchining gapiga quloq tutaman:

– Ha, uncha-munchasi bunaqa osh tayyorlay olmaydi, to'y oshi! Muhimi qorin to'yishi, qolgani bir gap bo'lar...

Yana o'yga tolaman... Insonlar xuddi avtomatlashib borayotgandek. Ishga boradi, ishdan keladi, atrofga, bo'layotgan voqea-hodisalarga befarqdek, go'yo faqat yeyish uchun yashayotgandek. Agar biror joyda qad rostlab turgan bino buzib tashlansa, ko'pchilik e'tibor bermasligi mumkin. Ammo doim tushlik qilayotgan joyi bir kun osh tayyorlamasa, hamma bunga e'tiroz bildiradi.

Yaqinda universitetimizda shunday voqea bo'ldi: Osh(choy va salati bilan) narxi 20.000 so'mdan 27.000 so'mga oshgani uchun hamma talabalar faol qarshilik ko'rsatishdi. Hatto darslarga haftada 2 marta zo'rg'a keladigan kursdoshim ham e'tiroz bildirib, xabar yozibdi. Lekin darslar sifati yaxshilanishi uchun o'tkaziladigan so'rovnomada ustozimiz bir necha bor ta'kidlagani uchungina bor yo'g'i 3-4 kishi qatnashadi, xolos. Na kulishni bilasan kishi, na yig'lashni...

**Zebuniso KAMOL qizi,**
talaba

ABDURAUF FITRAT

# BOQIY SO'Z



**1.** Tarbiya uch qismdan iborat: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloq tarbiyasi.

**2.** Agar kishi tijorat bilan mashg'ul bo'lsa, bu dunyoda farovon yashaydi, agar ibodat bilan shug'ullansa, u dunyoda oxirati obod bo'ladi, agar ilm bilan shug'ullansa, u ikki dunyo saodatiga erishadi.

**3.** She'rda kishilarning qonini qaynatg'uvchi, singirlarini o'ynatg'uvchi, miyasini titratguvchi, sezgusini qo'zg'atguvchi bir kuch, ma'naviy bir qudrat bor. Shunday bir kuchi bo'lmagan so'z vazn va qofiyasi bo'lsin, she'r bo'la olmaydir.

**4.** Hayot yo'lida birinchi masala – maktab masalasidir.

**5.** Turma. Yugur, tinma tirish,
bukulma yuksal,
Hurkma kurash, qo'rqma
yopish, yo'rilma, qo'zg'ol.
*"O'gut" she'ridan*

**6.** Har bir bola go'dakligidan onasining tarbiyasiga mahkum, binobarin, biz dastlabki tarbiyani o'z onamizdan olamiz, bu onalar bashariyatning tarbiyachilaridir.

**7.** Farzandining baxtsiz bo'lishini istamagan har bir ota uni mustaqil hayotga qo'yib yuborishdan oldin jismonan sog'lom, solim fikr va chiroyli xulq bilan qurollantirib qo'yishi kerak.

**8.** Har bir millat taraqqiysi uchun asosiy sabab ilmdir.

**9.** Tushkunlik va xarobligimizning sabablaridan biri ilmsizlik va harakatsizlikdir.

**10.** Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuizli ishbuzarlar, shaytonlar,
O'rtoq qonin qo'ymay ichkan zuluklar,
Qardosh etin qo'ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda o'ksiz yo'qsilning qonin,
Gurunglashib, chog'ir kabi ichkanlar?
Bormi senda butun dunyo tuzugin,
O'z qopchig'n to'ldirgan buzganlar?
*"Mirrix yulduziga" she'ridan*

YOSHLAR OVOZI
BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis: O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi

Bosh hamkor: O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir: Hamza ABDULLAYEV

Mas'ul muharrir: Shahruza SATTOROVA

Navbatchi muharrir: Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 4 bosma taboq. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-508. Adadi – 10366. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-4998

/yoshlarovozi /yoshlarovozi /yoshlarovozi.uz

1 2 3 4 5 6